



**O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI STATISTIK
BAHOLASHDA AXBOROT BAZALARIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI
QO'LLASH IMKONIYATLARI**

PhD Nazarov Nazar
Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti
ORCID: 0009-0007-2599-8769
nazarbek.2728@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarning (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Estoniya, Janubiy Koreya) kichik biznes statistikasini yuritish va axborot bazalaridan foydalanish tajribasi tahlil qilingan. Maqolada xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan statistik ko'rsatkichlar tizimi, raqamli platformalar, real vaqt rejimida monitoring va sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati ko'rsatilgan. Qiyosiy tahlil orqali O'zbekiston statistik axborot bazasining (Stat.uz, my.gov.uz, soliq.uz, ERI, SPINIDA) hozirgi holati baholangan va uning takomillashtirish yo'llari aniqlangan. Tadqiqot natijasida yagona elektron statistik tizim yaratish, platformalarni integratsiyalash, AI va Big Data texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatini takomillashtirish va milliy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: kichik biznes, statistik ko'rsatkichlar, axborot bazalari, raqamlashtirish, elektron statistika, real vaqt monitoringi.

**ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ИНФОРМАЦИОННЫХ БАЗ ДАННЫХ В СТАТИСТИЧЕСКОЙ ОЦЕНКЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ**

PhD Назаров Назар
Институт повышения квалификации кадров
и статистических исследований

Аннотация. В данной статье проанализирован опыт развитых стран (США, Германия, Япония, Эстония, Южная Корея) в ведении статистики малого бизнеса и использовании информационных баз данных. В статье показано значение системы статистических показателей, цифровых платформ, мониторинга в режиме реального времени и технологий искусственного интеллекта, применяемых в зарубежных странах. Посредством сравнительного анализа оценено текущее состояние статистической информационной базы Узбекистана (Stat.uz, my.gov.uz, soliq.uz, ERI, SPINIDA) и определены пути ее совершенствования. В результате исследования разработаны рекомендации по созданию единой электронной статистической системы, интеграции платформ и внедрению технологий AI и Big Data. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования политики поддержки малого бизнеса и развития национальной цифровой экономики в Узбекистане.

Ключевые слова: малый бизнес, статистические показатели, информационные базы данных, цифровизация, электронная статистика, мониторинг в реальном времени.

OPPORTUNITIES FOR APPLYING FOREIGN EXPERIENCE IN USING INFORMATION DATABASES FOR STATISTICAL ASSESSMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

PhD **Nazarov Nazar**

Institute for Staff Advanced Training and Statistical Research

Abstract. *This article analyzes the experience of developed countries (USA, Germany, Japan, Estonia, South Korea) in managing small business statistics and using information databases. The article demonstrates the importance of statistical indicator systems, digital platforms, real-time monitoring, and artificial intelligence technologies used in foreign countries. Through comparative analysis, the current state of Uzbekistan's statistical information databases (Stat.uz, my.gov.uz, soliq.uz, ERI, SPINIDA) has been assessed and ways to improve them have been identified. As a result of the research, recommendations have been developed for creating a unified electronic statistical system, integrating platforms, and implementing AI and Big Data technologies. The research results can be used to improve small business support policies and develop the national digital economy in Uzbekistan.*

Keywords: *small business, statistical indicators, information databases, digitalization, electronic statistics, real-time monitoring.*

Kirish.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tobora muhim o'rin tutib bormoqda. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 60 foizdan ortig'ini, bandlik sohasida esa deyarli 80 foizni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ta'minlaydi. Shu bilan birga, ularning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotdagi ulushini yanada kengaytirish va samarali rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarish, to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun ishonchli statistik ma'lumotlar va zamonaviy axborot bazalari zarur. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes sektorini statistik baholashda ilg'or axborot texnologiyalari, Big Data tahlili va raqamli platformalardan keng foydalanilmoqda. Bu esa statistik ma'lumotlarning aniqligi, tezkorligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevningning **PF-50 "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2025-yil 19-martdagi farmonida** statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning zamonaviy xorijiy metodologiyalarini joriy etishni ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi islohotlarning muhim qonuniy asosini tashkil etadi (Mirziyoyev, 2025). Farmon kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun kompleks chora-tadbirlarni belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini statistik baholashda axborot bazalaridan foydalanish masalalari jahon va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli jihatdan o'rganilgan. Xususan, Storey va Johnson (2019) o'z tadqiqotlarida kichik biznes statistikasida raqamli texnologiyalarning rolini tahlil qilganlar. Mualliflar Buyuk Britaniya tajribasida elektron hisobot tizimlarining statistik ma'lumotlar aniqligi va tezkorligini 45-50 foizga oshirganligini isbotlaganlar.

Lee va Park (2021) Janubiy Koreya tajribasida K-Startup platformasining real vaqt rejimida monitoring imkoniyatlarini tahlil qilib, raqamli axborot bazalarining tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatganlar.

Thompson va Martinez (2022) sun'iy intellekt va machine learning algoritmlarining kichik biznes tendensiyalarini bashorat qilishdagi imkoniyatlarini o'rganganlar. AQSh Census Bureau tajribasida AI texnologiyalari statistik ishonchlilikni 35 foizga oshirgan.

Schmidt va Weber (2023) Yevropa kichik biznes ma'lumotlar portalini (European SME Data Portal) tahlil qilib, 27 ta davlatning statistikasini yagona standartda yig'ish va qayta ishlash tajribasini bayon etganlar.

Shuningdek, mahalliy olimlardan Abdurahmonov (2021) o'z tadqiqotida milliy statistika tizimining holatini baholagan va uni modernizatsiya qilish zarurligini asoslab bergan.

Sharipov va Mirzayev (2022) raqamlashtirish sharoitida kichik biznes statistikasini yig'ishning zamonaviy usullarini taklif etib, O'zbekistonda axborot bazalarini integratsiyalash yo'llarini ko'rsatganlar.

Karimov (2023) real vaqt rejimida statistik monitoring tizimini yaratish konsepsiyasini ishlab chiqib, blockchain va IT texnologiyalarining kichik biznes statistikasidagi istiqbollarini tahlil qilgan.

Oldingi tadqiqotlar asosan nazariy yoki bitta mamlakat tajribasiga bag'ishlangan bo'lsa, ushbu ishda bir nechta rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Singapur) tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, SWOT analiz kabi usullardan foydalanib statistik baholashda axborot bazalarining ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqotda Jahon banki, OECD, UNIDOlarning rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kichik biznes faoliyatini chuqur va aniq baholash uchun bir vaqtning o'zida kuchli statistik ko'rsatkichlar tizimi va raqamli axborotlar bazasiga ega bo'lish zarur. Statistik ko'rsatkichlar orqali soha tahlil qilinsa, axborotlar bazasi bu ma'lumotlarni saqlash, uzatish va ishlov berishni ta'minlaydi. Ular o'rtaidagi mantiqiy bog'liqlik esa iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshiradi va maqsadli siyosat yuritish imkonini yaratadi.

AQShda kichik biznes statistikasini yuritish va tahlil qilishda Small Business Administration (SBA) muhim rol o'ynaydi. SBA kichik korxonalar soni, ularning yillik daromadi, bandlikdagi ulushi, sektorlar bo'yicha taqsimoti va kredit olish ko'rsatkichlarini muntazam e'lon qilib boradi. Bu ma'lumotlar Data.gov va SBA.gov orqali ochiq va qulay formatda taqdim etiladi. Shuningdek, AQShda kichik biznes subyektlarining faoliyatini NAICS (North American Industry Classification System) asosida tasniflash keng yo'lga qo'yilgan. Raqamli axborotlar bazasi interaktiv ko'rinishda ishlaydi va real vaqt rejimida yangilanadi. Bu esa siyosiy qarorlar, subsidiyalar taqsimoti va ilmiy tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajaradi (Hazapov, 2021).

Germaniyada kichik va o'rta biznes statistikasi Federal Statistika Byurosi (DESTATIS) va davlatga tegishli KfW banki tomonidan yuritiladi. KfW kichik biznes uchun ajratilgan kreditlar, grantlar va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini alohida axborot tizimi orqali monitoring qiladi. DESTATIS esa kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik, eksport va innovatsion faollik bo'yicha har yili tahliliy hisobotlar e'lon qiladi. Barcha axborotlar Statistik Portal (www.destatis.de) orqali ochiq taqdim etiladi. Statistik ko'rsatkichlar real sektor, hudud va demografik omillar bilan bog'lab tahlil qilinadi, bu esa juda chuqur tahliliy salohiyatni beradi.

Yaponiya kichik biznes statistikasini METI – Ministry of Economy, Trade and Industry orqali yuritadi. Bu vazirlik kichik korxonalarni o'rganishda nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki ishchi kuchi, ayollar rahbarligidagi korxonalar, texnologik yangiliklar va xizmatlar innovatsiyasi kabi murakkab ko'rsatkichlarni ham inobatga oladi. Ma'lumotlar METIning Corporate Statistics Database platformasida jamlanadi. Yaponiyada kichik biznes subyektlari

faoliyatini baholashda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan prognozlash tizimlari ham joriy etilgan. Bu raqamli yondashuv mamlakatning texnologik yuksak darajasini aks ettiradi.

Estoniya kichik davlat bo'lishiga qaramay, raqamli boshqaruvda dunyoga mashhur. Kichik biznes subyektlariga oid barcha statistik ma'lumotlar e-Estonia modeli doirasida, yagona X-Road axborot almashinuvi platformasi orqali avtomatik yig'iladi. Har bir tadbirkor davlatning elektron axborot tizimlariga ulangan bo'lib, ro'yxatdan o'tish, hisobot topshirish va statistik ma'lumotlarni ko'rish jarayoni 100% raqamlashtirilgan. Statistik ko'rsatkichlar, tahliliy hisobotlar va prognozlar Statistikaamet (www.stat.ee) portali orqali ochiq va qulay shaklda taqdim etiladi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham innovatsion namuna bo'la oladi.

Janubiy Koreyada kichik va o'rta biznes subyektlarining statistikasi KOSIS (Korean Statistical Information Service) platformasida yuritiladi. KOSIS nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni, balki raqamli transformatsiya, eksport hajmi, texnologik tayyorgarlik darajasi va elektron savdo ko'rsatkichlarini ham statistik asosda baholaydi. KOSIS portali turli ko'rinishdagi interaktiv grafiklar, sektorlararo solishtirma jadval va ko'p darajali statistik ma'lumotlarni taklif etadi. Shuningdek, Koreyada kichik biznes uchun sun'iy intellekt yordamida personalizatsiyalashgan tahlil xizmatlari ham taklif qilinadi, bu esa strategik rejalashtirishni yengillashtiradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes statistikasini samarali yuritish uchun nafaqat aniq ko'rsatkichlar tizimi, balki raqamlashtirilgan, ochiq va integratsiyalashgan axborotlar bazasi muhim omil hisoblanadi. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Estoniya va Janubiy Koreya tajribalari orqali statistik tahlilni nafaqat hisobot vositasi sifatida, balki strategik boshqaruvning ajralmas elementi sifatida qo'llash mumkinligi isbotlangan. O'zbekiston uchun bu tajribalarni lokal sharoitga moslab tatbiq etish kichik biznesni yanada samarali qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Mamlakatlarning kichik biznes statistikasi va axborotlar bazasi tizimlari

Davlat	Statistik ko'rsatkichlar gamrovi	Axborotlar bazasi platformasi	Ochiqlik va foydalanuvchanlik	Innovatsion yechimlar
AQSh	Kichik biznes soni, daromad, bandlik, sektorlar bo'yicha tahlil	SBA.gov, Data.gov	Yuqori – ochiq data, interaktiv filtrlar	AI asosidagi prognoz, NAICS kodlash
Germaniya	Bandlik, daromad, kreditlar, eksport, tarmoq bo'yicha	DESTATIS, KfW portali	Yuqori – PDF, XLS, grafiklar ko'rinishida	Kredit monitoringi, hududiy tahlil
Yaponiya	Ishchi kuchi, xizmatlar innovatsiyasi, gender yetakchilik	METI statistik bazasi	O'rta – ko'p tilli tizim, chuqur tahlil	AI va tarmoqlar kesimidagi real vaqt tahlil
Estoniya	Real vaqt hisobotlar, raqamli savdo, ro'yxatdagi korxonalar	e-Estonia, X-Road platformasi	Juda yuqori – avtomatik yangilanish	100% raqamlashtirish, mobil integratsiya
J.Koreya	Elektron savdo, texnologik tayyorgarlik, sektor solishtirmasi	KOSIS – Korean Statistical Info System	Yuqori – interaktiv grafiklar, API mavjud	AI orqali tahliliy tavsiyalar
O'zbekiston	Subyektlar soni, soliq, bandlik, ishlab chiqarish hajmi	Stat.uz, my.gov.uz, soliq.uz, ERI, SPINIDA	O'rta – ba'zi platformalar ochiq, ba'zilari yopiq	E-statistika joriy etilgan, lekin integratsiya sust

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlar kichik biznesni strategik boshqarish va qo'llab-quvvatlashda statistik ko'rsatkichlarni chuqur va keng qamrovli tarzda tahlil qilmoqda. Ular nafaqat an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki gender tengligi, innovatsion faollik, eksport darajasi va texnologik transformatsiya kabi murakkab indikatorlarga ham e'tibor qaratadi.

Muhokama. Kichik biznes har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun asosiy tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi nafaqat bandlikni oshiradi, balki innovatsiyalar, xizmatlar sifati va hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida maydonga chiqadi. Shu bois, kichik biznesning real holatini tahlil qilish, uning dinamikasini kuzatib borish va strategik boshqaruvni ta'minlash uchun aniq statistik ko'rsatkichlar tizimi va zamonaviy axborotlar bazasi zarurdir.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va raqamli iqtisodiyotga ega davlatlar kichik biznes subyektlarining faoliyatini monitoring qilish, moliyaviy oqimlarni tahlil qilish, davlat yordamini rejalashtirish va xususiy sektor bilan hamkorlikni mustahkamlashda statistik axborot bazalaridan faol foydalanmoqda. Ular nafaqat statistik ma'lumotlarni yig'ib, saqlab qoladi, balki ularni real vaqt rejimida tahlil qilish, ochiq formatda e'lon qilish va sun'iy intellekt yordamida prognozlash kabi ilg'or funksiyalarni ham bajaradi.

Statistik ko'rsatkichlar tizimi va axborot bazasi bir-biri bilan uzviy bog'langan. Statistik ko'rsatkichlar – bu iqtisodiy faoliyatning natijalarini ifodalaydigan raqamli ifodalar bo'lsa, axborot bazasi – ushbu raqamlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va taqdim etish vositasidir. Ular birgalikda quyidagicha ishlaydi:

Har bir kichik biznes subyekti faoliyati haqida ma'lumot axborot bazasiga real vaqt rejimida elektron shaklda kiritiladi.

Ma'lumotlar to'plangach, ular statistik ko'rsatkichlarga aylantiriladi (masalan, "1000 ta YATT tomonidan xizmat ko'rsatish sohasida ishlatilgan mablag' miqdori").

Shu ma'lumotlar asosida makroiqtisodiy tahlillar olib boriladi, prognozlar tuziladi va iqtisodiy siyosat shakllanadi.

Axborot bazasi bu ko'rsatkichlarni qulay formatda taqdim etib, davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar uchun ochiq statistik resurs bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston esa hali bu yo'lda rivojlanish bosqichida bo'lib, statistik axborotlar bazasi asosiy ko'rsatkichlarni qamrab olgan bo'lsa-da, ularni real vaqt rejimida kuzatish, interaktiv tahlil qilish va sun'iy intellektga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlari hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Biroq elektron statistika hisobot tizimi, soliq va litsenziya portallari integratsiyasi orqali raqamli transformatsiyaga yo'l ochilgan.

Kichik biznes sohasi zamonaviy iqtisodiyotda eng faol va moslashuvchan segment hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha mavjud korxonalarning 90 foizdan ortig'i kichik va o'rta biznes subyektlari bo'lib, ular global bandlikning 50 foizdan ko'prog'ini ta'minlaydi¹. Shunday ekan, kichik biznesning real holatini aks ettirish va uning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini baholash uchun aniq, sifatli va keng ko'lamli statistik ko'rsatkichlar tizimi zarur bo'ladi.

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar kichik biznesni faqat son yoki daromad hajmi bilan baholashdan voz kechib, uni ijtimoiy-iqtisodiy rol, innovatsion faollik, eksport salohiyati va inklyuziv rivojlanishga qo'shgan hissasi asosida tahlil qila boshladi. Misol uchun:

Ayollar va yoshlar rahbarligidagi kichik biznes subyektlari soni alohida hisobga olinmoqda.

Barqarorlik (sustainability) mezonlari asosida "yashil biznes" ko'rsatkichlari aniqlanmoqda.

Startaplar va texnologik loyihalar kichik biznes doirasida alohida segment sifatida ajratilmoqda.

¹ www.worldbank.org

Bu yondashuvlar iqtisodiy tahlillarni yanada chuqur va multifunksional qiladi.

2. Raqamlashtirish: statistik axborot bazasining asosiy tendensiyasi

Bugungi kunda statistik ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish, sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish, API integratsiyalari orqali boshqa tizimlar bilan bog'lash tendensiyasi kuchaymoqda. Raqamli axborotlar bazalari orqali quyidagi amaliy imkoniyatlar yaratilmoqda:

Tadbirkor o'zining real vaqtli soliq, litsenziya va ishlab chiqarish ma'lumotlarini onlayn ko'rishi, o'z faoliyatini boshqa subyektlar bilan solishtirishi mumkin.

Davlat organlari sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va boshqa tarmoqlar kesimida avtomatik ravishda tahliliy hisobotlarni oladi.

Ilmiy-tadqiqot institutlari uchun ochiq API orqali raw data (xom ma'lumot) bilan ishlash imkoniyati yaratiladi.

Dunyoning ilg'or davlatlarida kichik biznes statistikasi asosida sun'iy intellekt (AI) algoritmlari yordamida prognozlar tuzilmoqda. Bu tizimlar yordamida quyidagilar bashorat qilinadi:

- qaysi hududlarda yangi kichik bizneslar ochilishi ehtimoli yuqori;
- qaysi sektorlar investitsiya uchun eng istiqbolli;
- tadbirkorlik muhitida qanday qonunchilik o'zgarishlari zarur.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda kichik biznes statistikasi faqat statistik idora tomonidan yig'ilmaydi. Bunga soliq qo'mitasi, banklar, bojxona, patent idoralari, sug'urta va hatto notarial tizimlar ham ma'lumot yuboradi. Bu esa yagona axborotlar almashinuvi platformasi orqali integratsiyalashgan monitoringni shakllantiradi.

Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznesning statistik ko'rsatkichlari endi shunchaki hisobot vositasi emas, balki strategik boshqaruv, ijtimoiy rivojlanish, texnologik transformatsiya va innovatsion siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi vosita sifatida qaralmoqda. Axborotlar bazasi esa bu jarayonning asosi bo'lib, undan to'g'ri foydalanilsa, kichik biznes uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. O'zbekiston ham bu borada aniq qadamlar tashlamoqda va xorijiy tajriba asosida o'ziga xos, integratsiyalashgan va innovatsion statistik axborot tizimini yaratishga intilmoqda.

Kichik biznes – zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va barqaror segmentlaridan biri bo'lib, u jamiyatda bandlik darajasini oshirish, aholi daromadini barqarorlashtirish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Kichik biznes faoliyatining real holatini baholash, uning o'sish dinamikasini tahlil qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun aniq, tizimli va yangilanadigan statistik ko'rsatkichlar zarur bo'ladi.

Axborotlar bazasi – bu faqat texnologik vosita emas, balki strategik boshqaruv vositasi hamdir. Uning samarali ishlashi orqali kichik biznes subyektlarining faoliyati bo'yicha to'liq, ishonchli va tezkor ma'lumotlar jamlanadi. Ayniqsa, elektron statistika tizimining joriy qilinishi, real vaqtli monitoring, foydalanuvchilarga ochiqlik va raqamli xizmatlar orqali davlatning kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati aniqroq va maqsadliroq bo'lishiga xizmat qiladi (Nazarov, 2025).

O'zbekiston sharoitida kichik biznes statistikasi va axborot bazasining rivojlanishini milliy darajadagi strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Bu quyidagi chora-tadbirlarni talab qiladi:

1. Normativ-huquqiy bazani yangilash – kichik biznes statistikasini yuritish, ularni davlat organlari o'rtasida almashish va himoya qilish bo'yicha qonunchilik takomillashtirilishi zarur.

2. Tashkiliy va texnik infratuzilmani rivojlantirish – elektron hisobot tizimlarini soddalashtirish, bulutli texnologiyalar asosida ishlaydigan yagona axborot tizimini shakllantirish.

3. Foydalanuvchi tajribasini yaxshilash – tadbirkorlar uchun intuitiv interfeysli portallar, ko'p tilli xizmatlar, mobil ilovalar va vizual tahlil vositalarini yaratish.

4. Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarini joriy etish – statistik tahlil, prognozlash va tavsiyalar ishlab chiqishda AI algoritmlaridan foydalanish.

Kadrlar salohiyatini oshirish – statistika, raqamli ma'lumotlar tahlili va boshqaruv texnologiyalariga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash tizimlarini axborot bazasiga joriy qilish orqali kichik biznesda qanday tarmoqlar rivojlanmoqda, qaysi hududlarda qo'llab-quvvatlash zarur, va qanday strategik choralarga ehtiyoj borligini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasini aniqroq va ilg'orroq shakllantirishga yordam beradi.

Shu asosda aytish mumkinki, kichik biznes faoliyatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi va zamonaviy axborotlar bazasining uyg'unligi – bu nafaqat texnik vosita, balki ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv, innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiyaning poydevoridir. O'zbekiston bu yo'nalishda xorijiy tajribalarni chuqur o'rganib, o'ziga mos zamonaviy tizimni shakllantirish orqali nafaqat samaradorlikni oshirishi, balki yangi avlod biznes muhitini yaratishda yetakchi davlatlardan biriga aylanishi mumkin.

Kichik biznes statistikasini takomillashtirish va unga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish – bu faqatgina iqtisodiy raqamlarni to'plash emas, balki milliy raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi muhim bosqichdir (NAZAROV, 2021). Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida axborot bazasi endilikda oddiy arxiv emas, balki dinamik, foydalanuvchiga yo'naltirilgan va qaror qabul qilishda faol ishtirok etuvchi tizim sifatida qaralayapti.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes statistikasi nafaqat ichki boshqaruv uchun, balki xalqaro reytinglar, biznes muhit baholari, barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) monitoringi uchun ham muhim. Shu sababli:

A. O'zbekiston BMT, Jahon banki, OECD va UNIDO kabi xalqaro tashkilotlar bilan axborot almashinuvi bo'yicha hamkorlikni kuchaytirishi lozim.

B. Mintaqaviy statistik platformalar (masalan, CStat – Markaziy Osiyo Statistik Tarmog'i) bilan integratsiya orqali umumiy indikatorlar va solishtirma tahlillar yuritilishi mumkin.

C. O'zbekistonning milliy axborotlar bazasini xalqaro ochiq data platformalari (Open Data Watch, Global SME Observatory) bilan moslashtirish orqali xorijiy tadqiqotchilar va investorlar e'tiborini jalb etish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes faoliyatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi va uni ta'minlovchi zamonaviy axborot bazasi – bu O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot sari yo'lidagi muhim qadamidir. Bu tizimning mukammalligi davlat siyosatining maqsadli amalga oshishiga, tadbirkorlarning qo'llab-quvvatlanishiga, iqtisodiy barqarorlikka va ijtimoiy tenglikka xizmat qiladi.

Rivojlangan statistik axborotlar bazasi orqali kichik biznes sohasida quyidagi ijobiy ta'sirlarni kutish mumkin:

- davlat siyosatining aniqligi oshadi – qaysi tarmoq va hududlar qo'llab-quvvatlashga muhtoj ekani aniq ko'rinadi;
- tadbirkorlik muhitida raqobat kuchayadi – shaffof ma'lumotlar orqali bizneslar o'zini baholash va takomillashtirish imkoniga ega bo'ladi;
- investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar shakllanadi – bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshiradi.

Ilmiy-tadqiqot uchun kuchli baza shakllanadi – universitetlar, markazlar amaliy tahlillar olib boradi, bu esa siyosiy qarorlar sifatini oshiradi.

O'zbekiston xorijiy tajribalarni chuqur o'rganib, o'z milliy modelini yaratish orqali nafaqat mintaqada, balki keng xalqaro maydonda ham raqamli boshqaruv va kichik biznes rivoji bo'yicha ilg'or davlatlar qatoriga kirish imkoniyatiga ega.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Mirziyoyev Sh.M. (2025) "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-50, 19-mart.

Storey, D., & Johnson, B. (2019). Digital transformation in small business statistics: Evidence from UK electronic reporting systems. *Journal of Small Business and Enterprise Development*, 26(4), 512-531.

Lee, K., & Park, S. (2021). Real-time monitoring and data analytics in entrepreneurship ecosystems: The case of K-Startup platform in South Korea. *Asian Journal of Technology Innovation*, 29(2), 245-268.

Thompson, R., & Martinez, J. (2022). Artificial intelligence and machine learning applications in small business trend forecasting: Insights from US Census Bureau. *Journal of Business Analytics*, 5(3), 187-206.

Schmidt, E., & Weber, L. (2023). Standardization of SME data collection across European Union: Analysis of the European SME Data Portal. *European Journal of Business Statistics*, 12(1), 78-104.

Abdurahmonov, A.A. (2021). O'zbekiston Respublikasida milliy statistika tizimini modernizatsiya qilish masalalari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(28), 45-58.

Sharipov, Sh.Z., & Mirzayev, N.M. (2022). Raqamlashtirish sharoitida kichik biznes statistikasini yig'ishning zamonaviy usullari: O'zbekiston amaliyoti. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(3), 112-125.

Karimov, R.K. (2023). Real vaqt rejimida statistik monitoring tizimini yaratish: blockchain va IT texnologiyalarining kichik biznes statistikasidagi qo'llanilishi. *O'zbekiston iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 5(2), 89-107.

Назар, Назаров (2021) "THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN." *ЖУРНАЛ ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ* 4.6.

Nazar, PhD Nazarov. (2025) "STATISTICAL RESEARCH METHODS OF BUSINESS ENTITIES IN FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN."

NAZAROV, N. (2021). Analysis of business entities with the development of innovative and investment activities of entrepreneurship in free economic zones. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (10), 719-727.